QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 21 - sentabr 136-4-209-Q/22 Shahrisabz shahar hokimligi

Shahrisabz shahar umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi 172-sonli qarori talablariga asosan Shahrisabz shahri hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Shahrisabz shahar Ichki ishlar bo'limining 2022 yil 24 avgustdagi 4303-sonli taqdimnomasini ko'rib chiqib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahrisabz shahar Ichki ishlar bo'limining 2022 yil 24 avgustdagi 4303-sonli taqdimnomasi inobatga olinsin.

2. Shahrisabz shahar umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l

belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Shahrisabz shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i podpolkovnik S.Usmonov, shahar ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i kata leytinant Sh.Quziyev va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori U.Azizovga shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi matbuot xizmati (G.Uzoqova) mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Shahar hokimligi devonxonasi (R.Qayumov) mazkur qarorni qog'oz va elektron shakllarda, bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari E.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz shahar hokimi **A.Sulaymonov**

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 21 sentabrdagi
136-4-209-Q/22-son qaroriga
1-ilova

QASHQADARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI
SHAHRISABIZ SHAHAR ICHKI ISHLAR BO`LIMI
SHahrisabz shahar, Pillakashlik ko‘chasi 5-uy, ind: tel. 522-12-78

№ 4303 «14» 08 2022 yil.

Ma’lumot uchun: **Shahrisabz shahar hokimi**
A.I.Sulaymonovga

Ijro uchun: ***Qashqadaryo viloyati IIB JXX YHXB***
M E M B boshlig’I mayor
F.Normuminovga

Shahrisabz TYFUK boshlig‘i
U.Azizovga

SHahrisabz shahar tarixiy qismini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va saqlash departamenti boshlig‘i
N.Sattorovga

ШАҲРИСАБЗ ШАҲАР ҲОКИМЛИГИ
КИРИМ № 355
2022 г. 08 «26»

TAQDIMNOMA

Shahrisabz shahar xududida yo‘l xarakat xavfsizligini taminlash yo‘llarda tirbandlikning oldini olish, yo‘l transport xodisalarini oldini olish, fuqarolarning yo‘llardan kesib utayotgan vaqtda qulaylik va engillik yaratish maqsadida shuningdek, fuqarolarning asosli vajlariga sabab bo‘layotgan ya’ni shaharning ayrim joylariga transport svetafori o‘rnatilishi, yo’l chiziqlari chizilishi, transport va piyodalar oqimi yuqori bo’lgan Buyuk ipak yo’li ko’chasi “Makro” savdo ma’jmuasi hamda “Kesh dehqon” bozori “Aqlli piyodalar o’ish joyi”ni ya’ni piyodalar o’tish uchun “osma ko’prik” yoki “er osti” piyodalar o’tish joyini tashkil etish lozimligi o‘rganildi.

Shunga asosan Shahrisabz shahar 4R23L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 11-12 km oralig‘ida yani Ipak Yo‘li va Kunchiqar ko‘chalar kesishgan chorraxasiga, 4R23L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 6-7 km oralig‘ida yani Kesh ko‘chalar kesishgan chorraxasiga, 4R23L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 5-6 km oralig‘ida yani Temir yo’l ko‘chasi kesishgan chorraxasiga ovozli transport svetoforini, o’rnatilishi lozim bo‘ladi.

Shahrisabz shahrni “Turizm” shaharligini hisobga olib Ipak yo’li ko’chasidan “Damas” rusumli transport vositalarni chiqarib, zamonoviy “Avtobus”larni Shahrisabz shahri “Med kollej” chorraxasidan Kitob tumani “Anor” aylanma yo’li yo’nalishlariga kiritish choralarini ko’rish lozim bo’ladi.

Shuningdek 4K289 “Shaxrisabz shahrini” aylanib o’tish yo’lida nosozliklar bo’lib, haydovchilarga noqulayliklar tug’dirayotganligi sababli ta’mirlash ishlari olib borilib, ushbu yo’nalishning xolotidan va harakat oqimidan kelib chiqib, toifasini o’zgartirish (turkumdan turkumga) o’tkazilishi lozim bo’ladi. Ushbu yo’nalishda piyodalar va velosipedchilar uchun yo’lakchalar yaratish va yoritish chiroqlarini o’rnatish lozim bo’ladi. Navruz va Qushxona ko‘chalarida kunning qorong‘u vaqtida yo‘lni yortish uchun o‘rnatilgan yortish chiroqlari umuman ishlamayotganligini malum qilaman.

Shahrisabz shahar xududida piyodalar o’tish uchun mo’ljallangan bozorlar, savdo majmualari, maktablar, maktabgacha ta’lim muassasalar va charroxalarga piyodalar o’tish joylari, yo’l chiziqlari, svetofor chiziqlari uchib ketganligi sababli to’liq chizish, ularni chizishda sifatli buyoqlardan foydalanish maqsadga muofiq bo’ladi.

Shahrisabz shahar xududida harakat xavfsizligini ta’minlash, tirbandlikning oldini olish maqsadida 4R23L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 12-kilometri Meydon savdo majmuasi ro’parasiga, Shahrizabz shahri Chilonzor ko’chasi Olchozor MCHJ bozori (61 bozor) ro’parasiga 3.27 “To’xtash taqiqlangan” yo’l belgilarini o’rnatilishi lozim bo’ladi.

Transport va piyoda oqimi yuqori bo’lgan Buyuk ipak yo’li ko’chasi “Makro” savdo majmuasi hamda “Kesh dehqon” bozori “Aqlli piyodalar o’tish joy”ni ya’ni “osma kuprik” yoki “er osti” piyodalar o’tish joyini tashkil etish lozim bo’ladi.

Shuningdek 4R23L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining 11-kilometriga yangi namunadagi xavfli burilish yo’l belgisini o’rnatish lozim bo’ladi. Shaxrisabz shahar hududdagi barcha yo’l belgilarini ko’zdan kechirib, tamirtalabni tamirlash va yangi yo’l belgilari o’rnatilishi lozim bo’ladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan qilinishi lozim bo‘lgan ishlarda amaliy yordam berib, bajarilgan yoki bajarilmaganligi bo‘yicha Shahrisabz shahar IIB YHXBga yozma ravishda ma’lumot berishingiz so‘raladi.

Shahrisabz shahar IIB
boshlig‘i podpolkovnik **S.I.Usmonov**

Shahrisabz shahar hokimining
2022 yil 21 sentabrdagi
136-4-209-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz shahar hokimining
2022yil “___” _____ dagi

____ - sonli qaroriga ilova

Shahrisabz shahri hududidagi umumfoydalanuv avtomobil yo‘llarida o‘rnatilgan 3.27-“To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgisi bo‘yicha

MA’LUMOT

№	Yo‘lning nomi	Joylashgan joyi/km	O‘ng	Chap	Yo‘ belgi nomi
1	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	7,8	+		3,27
2	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	9	+		3,27
3	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	9,1		+	3,27
4	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	11,9		+	3,27
5	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	12	+		3,27
6	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining Chilonzor ko’chasi bilan tutashuvchi qismi	12,5	+		3,27
7	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	12,5		+	3,27
8	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	12,58	+		3,27
9	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘lining Chilonzor ko’chasi bilan tutashuvchi qismi	12,57		+	3,27
10	4R-23 L “Kitob-Shahrisabz” avtomobil yo‘li	13	+		3,27
11	4K-347 B Shahrisabz shahriga kirish avtomobil yo‘li	12		+	3,27